ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARDAGI PUL OQIMLARI.

Sindarov Sh.K
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank ishi kafedrasi katta o'qituvchisi

Abdullayeva E.J
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank-Moliya xizmatlari fakulteti BI- 424 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20019321

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro iqtisodiy munosabatlarda pul oqimlarining mazmuni, turlari va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni yoritilgan. Xususan, savdo operatsiyalari, investitsiyalar, kreditlar va pul o‘tkazmalari orqali yuzaga keladigan moliyaviy oqimlar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro pul oqimlariga ta’sir etuvchi omillar hamda ularning ijobiy va salbiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada global moliya institutlari, jumladan Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki ma'lumotlariga asoslangan holda pul oqimlari tahlil qilindi. Natijada, xalqaro pul oqimlarini samarali boshqarish iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, pul oqimlari, tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valyuta deviz siyosati, valyuta diskont siyosati, valyuta investitsiyasi, eksport va import, xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, valyuta siyosati, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki.

Abstract: This article examines the essence, types, and economic significance of money flows in international economic relations. In particular, it analyzes financial flows arising from trade operations, investments, loans, and remittances. The study also considers the factors influencing international money flows, as well as their positive and negative aspects. The analysis is based on data from major global financial institutions, including the International Monetary Fund and the World Bank. As a result, the article demonstrates that effective management of international money flows is a key factor for ensuring economic stability and sustainable development.

Keywords: International economic relations, money flows, foreign trade policy, foreign investment policy, exchange rate policy, currency discount policy, currency investment, export and import, foreign investments, portfolio investments, monetary policy, International Monetary Fund, World Bank.

Kirish: Bugungi globallashgan iqtisodiyot sharoitida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora murakkablashib, o‘zaro bog‘liqlik kuchayib bormoqda. Ushbu jarayonlarning markaziy elementlaridan biri xalqaro pul oqimlari hisoblanadi. Xalqaro pul oqimlari deganda, mamlakatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, investitsiyalar va boshqa moliyaviy operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan pul mablag‘larining harakati tushuniladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon xo’jaligi tizimida tez-tez takrorlanib turuvchi har xil darajadagi kompleks, alohida olingan bir mamlakat va ularning hududiy birlashmalari va sub’-ektlari, alohida tashkilotlar o’rtasidagi aloqalarni o’z ichiga oladi.

Tashqi savdo siyosati - O‘zRning xorijiy davlatlar bilan mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalar ayirboshlashni qamrab olgan tashqi savdo faoliyati munosabatlarini o‘rnatish va tartibga solish hisoblanadi.

Tashqi investitsiya siyosati - O‘zR hududiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ishlatish, shuningdek, o‘zbek investitsiyalarining xorijga chiqarilishini tartibga solish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi.

Xorijiy investitsiyalarni import qilish quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- xalqaro standartlar darajasi bo‘lgan milliy tovar va xizmatlar hajmini ko‘paytirish;
- ilg‘or texnologiya, tajriba va nou-xallarni jalb etish;
- ishsizlikni qisqartirish va aholi bandligini o‘stirish;
- MD va YaMMni o‘stirish.

Valyuta siyosati – valyuta vositalarini shakllantirish va ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan holda samarali foydalanishga qaratilgan siyosatdir.

Valyuta diskont siyosati – valyuta kursining korrektirovkasiga asoslangan investitsiyalar harakati va balanslashtirilgan to‘lov majburiyatlari uchun hisob stavkasi foizlarini qo‘llash bo‘yicha iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar tizimidir.

Valyuta deviz siyosati – valyuta interventsiyasi va valyuta cheklashlari yordamida valyutani sotish va sotib olish kurslarini tartibga solish tizimidir.

Valyuta interventsiyasi – milliy valyutaning ko‘tarilish yoki tushib ketish chegarasida uning dinamikasini cheklash uchun xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo‘yicha O‘zR MBning maqsadli operatsiyalaridir.

Pul oqimlarini tahlil qilish tashkilotning moliyaviy holati, likvidligi va to‘lov qobiliyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Xususan, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot (CFS) investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga kompaniyaning pul harakatlari haqida yetarli ma’lumot beradi [1]. Bu hisobot, daromadlar to‘g‘risidagi hisobotga nisbatan subyektiv baholashlardan kamroq ta’sirlanganligi bois, kompaniyaning potentsial muammolari va iqtisodiy xatarlarini aniqlashda asosiy ko‘rsatkichdir [3]. Pulning vaqt qiymati konsepsiyasi va diskontlangan pul oqimlari tahlili moliyaviy qarorlar qabul qilishda, ayniqsa investitsiya loyihalarini baholashda muhim bo‘lib, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun zarurdir [2].

Adabiyotlar tahlili: Xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi pul oqimlarini chuqur tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu sohadagi adabiyotlar tahlili mavzuning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va rivojlanish tendentsiyalarini keng qamrovli yoritishga xizmat qiladi. Pul oqimlarini tushunishda moliyaviy hisobotlarning, xususan, Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning (POTTH) roli markaziy o‘rin tutadi. POTTHning kelib chiqishi va evolyutsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, u 1860-yillarda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, uning zamonaviy tuzilishi, ya’ni pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlarga ajratish 1988-yilga kelib AQShda shakllangan [1]. Moliyaviy hisobot standartlari kengashi uning asosiy maqsadini investorlar va kreditorlarni kompaniyaning pul harakatlari haqida yetarli darajada xabardor qilish deb belgilagan [1]

Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB) tomonidan 1992-yilda joriy etilgan va 1994-yildan kuchga kirgan Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) 7 "Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot" uning global miqyosda majburiy taqdim etilishini belgilab berdi va "Moliyaviy holatdagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot"ni almashtirdi [1]. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari, jumladan Rossiya 1996-yilda ushbu hisobotni qabul qilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ham "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonun (2016) va BHMS 9 ga muvofiq POTTH qonuniy jihatdan majburiy hisoblanadi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli qarori bilan moliyaviy hisobotlarning XMHSga o‘tishi belgilanganligi sababli, O‘zbekiston Moliya vazirligi POTTH shaklini doimiy ravishda yangilab, uni xalqaro amaliyotlarga moslashtirib bormoqda va soha xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘shimcha moslashuvlarni taklif etmoqda [1], [3].

Jumayeva G.A. va Shakarov Sh. kabi tadqiqotchilarning ishlari tashkilotning pul oqimlarini POTTH orqali tahlil qilishning ortib borayotgan ahamiyatini ta’kidlaydi. Ular POTTHni kompaniyaning potentsial muammolari va iqtisodiy xatarlarini aniqlashda asosiy ko‘rsatkich sifatida ko‘rib chiqadilar, chunki u daromadlar to‘g‘risidagi hisobotga nisbatan subyektiv baholashlardan kamroq ta’sirlangan [3]. Biroq, ushbu hisobotning cheklovlari ham mavjud bo‘lib, u kelajakdagi pul oqimlarini shakllantirishga ta’sir etuvchi barcha moliyaviy va nomoliyaviy omillarni, masalan, debitorlik qarzlari va tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishni to‘liq aks ettirmasligi mumkin, bu esa prognozlashda qiyinchiliklar tug‘diradi [3]. Shuningdek, XMHS bo‘yicha POTTHni to‘g‘ridan-to‘g‘ri usulda tayyorlash tartibini to‘liq bayon etishda ilmiy bo‘shliq mavjudligi qayd etilgan [3].

Tadqiqot metadalogiyasi: Ushbu tadqiqot xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi pul oqimlarini chuqur va tizimli tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, sifatli va tahliliy yondashuv asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot tavsifiy va tushuntiruvchi xarakterga ega bo‘lib, mavjud ilmiy adabiyotlarni tanqidiy o‘rganish, xalqaro moliyaviy standartlarni tahlil qilish hamda ularning milliy iqtisodiyotlarga ta’sirini baholashga asoslanadi. Ushbu metodologik yondashuv xalqaro pul oqimlarining nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va zamonaviy global tendensiyalarini kompleks tarzda o‘rganishni maqsad qiladi.

Tahlil va natijalar: 2025 yilga oid xalqaro pul oqimlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon iqtisodiyotida kapital harakati to‘liq barqaror emas va turli tashqi omillar ta’sirida o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Xalqaro valyuta jamg‘armasi baholariga ko‘ra, global moliyaviy oqimlarning sekinlashishiga asosan yuqori foiz stavkalari, geosiyosiy beqarorlik va investitsion xavflarning ortishi sabab bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, ularning taqsimlanishi notekis xarakterga ega. Asosiy kapital oqimlari rivojlangan iqtisodiyotlar va ayrim tez rivojlanayotgan Osiyo davlatlariga yo‘naltirilmoqda. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiya jalb qilish jarayonida raqobat kuchayganini ko‘rsatadi.

Xalqaro pul oqimlari statistik tahlili (2024–2025 prognozlari)

Migratsion pul o‘tkazmalari esa global moliyaviy tizimda barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon

Ko‘rsatkichlar	Jahon miqyosidagi holat (XVJ bahosi)	Jahon banki ma’lumoti
Global iqtisodiy pul oqimlari (kapital harakati)	3–4% global YaIMga nisbatan sekinlashuv kuzatilgan	Rivojlanayotgan mamlakatlarda kapital kirimi o‘zgaruvchan
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	1.3–1.5 trillion AQSH dollari (2024–2025 prognoz)	Asosiy oqim rivojlangan davlatlarga yo‘naltirilgan
Migratsion pul o‘tkazmalari	Global barqaror o‘sish +3–5%	900 milliard AQSH dollaridan yuqori
Xalqaro kredit va qarz oqimlari	Foiz stavkalari oshishi sabab kamayish tendensiyasi	Qarz yuki oshayotgan mamlakatlar soni ortmoqda
Valyuta oqimlari va zaxiralar	Dollarlashuv yuqori darajada saqlanmoqda	Markaziy banklar oltin va rezervlarni oshirmoqda
Rivojlanayotgan davlatlarga kapital kirimi	Notekis (volatil) oqim	Investitsiya oqimi infratuzilma va energetikaga yo‘naltirilgan

etmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, bu oqimlar ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim daromad manbai bo‘lib, ularning iste’mol bozori va ijtimoiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro kredit va qarz oqimlarida esa pasayish va xavf ortishi kuzatilmoqda. Bunga global foiz stavkalarining oshishi va qarz yukining ko‘payishi sabab bo‘lmoqda. Natijada ayrim davlatlarda moliyaviy barqarorlikka bosim kuchaymoqda.

Umuman olganda, 2025 yil xalqaro pul oqimlari uchun murakkab va noaniqliklar bilan to‘la davr sifatida baholanadi. Kapital harakatining samarali boshqarilishi, investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bugungi kunda har bir davlat uchun dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa: Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda pul oqimlari jahon xo‘jaligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali davlatlar o‘rtasida savdo, investitsiya va moliyaviy hamkorlik amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sharoitda pul oqimlari hajmi ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning harakati beqaror va tashqi omillarga sezgir bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, global moliyaviy bozorlar, foiz stavkalari va geosiyosiy vaziyat kapital oqimlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki ma’lumotlari asosida olib borilgan tahlillar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiyalar va pul o‘tkazmalari muhim moliyaviy manba ekanligini tasdiqlaydi.

Biroq, tashqi qarzlarning ortishi va kapital chiqib ketishi xavfi ushbu davlatlar iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro pul oqimlarini samarali boshqarish, moliyaviy risklarni kamaytirish va investitsion muhitni yaxshilash iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, har bir mamlakat global moliyaviy jarayonlarda faol ishtirok etish bilan birga, ichki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten va yillik hisobotlar. – Toshkent, 2023–2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Rasmiy statistik to‘plamlar va ochiq ma’lumotlar portali. – stat.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar sharhi. – Toshkent, 2024–2025.
4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi. World Economic Outlook va Regional Economic Outlook hisobotlari.
5. Jahon banki. Global Economic Prospects va World Development Indicators bazasi.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. International Capital Flows Statistics.
7. www.imf.org– xalqaro moliyaviy statistik ma’lumotlar bazasi
8. www.worldbank.org – global iqtisodiy ko‘rsatkichlar va tahliliy ma’lumotlar.
9. www.cbu.uz – Markaziy bank rasmiy sayti